

**Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga ingliz tilini
inavatsion usullarda o'rgatish metodikasi**

Jo`rayeva Sevinch Mehroj qizi

*Samarqand davlat chet tillari instituti Ingliz tili 2 fakulteti Maktabgacha va
boshlang'ich ta'limda ingliz tili yo'nalishi 2-bosqich talabasi.*

Ilmiy raxbar: Zubaydova N.N.

***Annotatsiya:** ingliz tili eng keng tarqalgan va foydalanilgan xalqaro tillardan hisoblanib, bugungi kunda ushbu tilini o'rganish dolzarblik kasb etmoqda. Ushbu maqolada ingliz tilini invatsion usullarda o'rgatish metodikasi va ularning til o'rganishdagi ahamiyati yoritib berildi.*

***Ka'lit so'zlar:** ingliz tiliga bo'lgan talab, inavation metodlar, o'yinlar, shafowing usuli, riddle(topishmoqlar), ko'rgazmali qurollar.*

Ingliz tilining dunyo miqyosida tutgan o'rni ko'p tarmoqlidir. Ingliz tilining bu ko'pgina ko'rinishiga, global integratsiyaga, va xalqaro munosabatlarga tegishli bo'lgani, uni dunyo tillari ichida o'rtasida mavqeini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi sabablarga kora ingliz tili keng qo'llaniladi. 1. Xalqaro kommunikatsiya.2. Ilmiy va San'at Sohasi 3. Biznes va Savdo: 4. Diplomatiya va tarix. 5. Internet va Texnologiyalar. 6. O'quv-Me'moriy tarmoqlar va manbalarda asosiy ma'lumot tili bu ingliz tilidir.

Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi, faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va foydalanish imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishiga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va

boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega. []

Riddle(topishmoq) ham til o'rganishda eng ko'p qo'llaniladigan vositalardan hisoblandi. Topishmoq bu aql charxidir. Topishmoqlar o'quvchilarni mantiqiy fikrlashni rivojlantiradigan o'yin turi hisoblanib, darslarning samaradorligini oshirishda keng qo'llaniladi. Quyida bir nechta topishmoqlarga misollar berildi.

Q: What appears once in a minute, twice in a moment, but not once in a thousand years? Answers: The letter "M". Q: You'll find me in Mercury, Earth, Mars and Jupiter, but not in Venus or Neptune. What am I? Answers: The letter "R."

Ta'lim jarayonida ko'rgazmali metod katta ahamiyatga egaligini. Umumtexnik va kasb ta'limi fanlari bo'yicha ko'rgazmali metod tabiiy (asbob, dastgoh, detall, jihoz, material namunalari) va tasviriy (plakatlar, model, maket, sxema, kino- videofilm, slayda, kinoproeksiya, kompyuter, multimedia va boshqalar) jihozlar vositasiga qo'llaniladi. Ko'rgazmali metodning vazifalari turlicha bo'lishi mumkin. O'qituvchi mavzu tushuntirishda yoki bir xil xollarda o'rganilayotgan fan bo'yicha aniq ko'rgazma sifatida, yangi axborotlarni berishda ko'rgazmali metoddan samarali foydalanish mumkin.[]

"Story Cubes o'yini" qiziqarli va til o'rganishga moslashgan qiziqarli tadbir yoki hikoya tuzish uchun juda samarali bo'lgan o'yin. Story Cubes, 9 ta kubdan iborat bo'lib o'yin hisoblanib, har bir kubda rasmlar, ramzlar yoki tasvirlar mavjud. Bu rasmlar bir-biri bilan bog'liqdir. O'yin qoidalari: O'yin boshlanganda, har bir o'quvchi bir necha kublardan tanlab olishadi. O'quvchilar olishgan rasmlar asosida biror qisqacha hikoya yartishga harakat qiladilar. Ushbu o'yinda o'shimcha imkoniyatlar majud bo'lib o'quvchilar bilmagan so'zlarini jamoadoshlaridan yoki lug'atlardan foydalana oladilar. Bu o'yin o'quvchilarni tilni amaliy ravishda ishlatish, tarjima qilish, va tarjimaga javob berish uchun foydalaniladigan interfaol o'yin turlaridandir. Ushbu o'yining maqsadi so'z boyligini oshirish va gaplari to'g'ri tuzishni o'rgatish.[]

Flashcard". Bu so'z Ingliz tilida "karteteka" deb tarjima qilinadi. Kartetakalar, o'rganilayotgan mavzular, so'zlar, yoki faktlar bilan bog'liq ma'lumotlarni

o'rganishda foydalaniladigan kartalar hisoblanadi. Bu kartalar orqali ma'lumotlarni eslab qolish va o'rganish juda qulay hisoblanadi. Ingliz tilini o'rganishda kartetakalar, so'zlar va gaplar orqali mavzu bo'yicha o'qish va yodlash uchun samarali vosita bo'lib, bu usul bilan so'zlar va ularning ma'nolarini tushunish va eslatib borish mumkin. Bo'limlarga ajratilgan kartetakalar yordamida istalgan vaqtda kartetakalarning ko'plab onlayn resurslar va mobil ilovalar orqali ham foydalangan holda ingliz, rus, va o'zbek tillarida ma'lumotlar olish mumkin.

Misol uchun "Smarty" deb nomlanuvchi kartetakalar bilan ishlaydigan onlayn platforma hisoblanadi. Ushbu programma telefon yoki planshetlarga o'rnatiladi. Har bir o'quvchilarga turli xil mavzudagi (hayvonlar, qushlar, mevalar) rasmi bo'lgan kartetakalar tarqatiladi. Har bir o'quvchi o'z rasmlarini o'rnatilgan programmaga ko'rsatdi. Natijada ham yozma ham ovozi tarzda hayvonlar yoki qushlar haqida ma'lumotlar beriladi. Eng qiziqarli ularning rasmlari kattalashtirib barchaga ko'rsatiladi.

"Soyabon" metodi- ushbu metod ham juda qiziqadi hisoblanib, (weather- ob havolar) ma'lumotlar takrorlash uchun ishlatiladi. Buning uchun soyabon olib kelinadi. Soyabon chet tillariga ob havoga oid so'zlar yopishtirib chiqadi. Masalan: wind- shamol, rain- yomg'ir, snow- qor kabi so'zlar yozib yopishtirib chiqiladi. Soyabon aylantirilganda o'quvchilarga qaysi so'z to'g'ri kelsa o'sh so'zlar tarjimasi va tallafuz ho'lida o'rganiladi. Quyidagi rasmda ushbu metod qanday tuzulishiga namuna berildi.

Xulosa qilib ayganda, xorijiy tillarni o'rganishda turli xil mutfilmlar va video darslardan foydalanish ham darsning qiziqarli bo'lishiga imkon yaratadi. Ayniqsa maktabgacha va boshlang'ich ta'lim o'quvchilari ko'proq ko'rib va amaliy o'rganishga qiziqishadi. Darslarning samardorligini oshirishda yangi ped texnologiyaardan foydalanish nafat oquvchilarni darsga bo'lgan qiziqishini balki, ularda tanqidiy, matiqiy fikrlash qobiliyatlarini o'sishiga imkon yartib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.eslessonhandouts.com/drilling-in-language-teaching/internet-resurslari>; (<https://www.eslessonhandouts.com/drilling-in-language-teaching/>).

2. <https://www.google.com/imgres?imgurl=https%3A%2F%2Ffayllar.org%2Fumumiy-xolda-talim-metodlarini-3-ta-asosiy-guruxga-ajratish-mu%2Fimg5.jpg&tbnid=qDEv9Oq3Vdo5qM&vet=1&imgrefurl=https%3A%2F%2Ffayllar.org%2Fumumiy-xolda-talim-metodlarini-3-ta-asosiy-guruxga-ajratish-mu.html&docid=XPGkAFfSjg0gLM&w=800&h=600&hl=uz-UZ&source=sh%2Ffx%2Fim%2Fm1%2F4>

3. <https://www.splashlearn.com/blog/best-english-learning-games-for-kids/>

4. Zubaydova Nilufar Nematillaeva , Learning English with phrases (2019).

5. Zubaydova Nilufar Nimatillaeva, The importance of teaching vocabulary (2019).